

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 331.1:658.1:622:005.21

NAZAROVA SITORABONU SHAROFIDDINOVNA

RAQOBAT SHAROITIDA KORXONANI STRATEGIK
BOSHQARISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(Tog'-kon metallurgiya sanoati korxonalari misolida)

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish
uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: Umarov A. T.
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent–2025

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHNING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI	12
1.1.Korxonani strategik boshqarishning nazariy va uslubiy jihatlari.....	12
1.2.Korxonani strategik boshqarishga oid konsepsiyalar tahlili	22
1.3.Korxonani strategik boshqarish usullariga oid xorij tajribasi	36
II-BOB. RAQOBAT SHAROITIDA TOG‘-KON METALLURGIYA SANOATI KORXONASINI STRATEGIK BOSHQARISHNING TAHLILI (OKMK misolida)	49
2.1. Tog‘-kon metallurgiya sanoati korxonasi iqtisodiy salohiyatining tahlili.....	49
2.2. Korxonani strategik boshqarishning funksional tahlili.....	63
2.3. Raqobat sharoitida korxonani rivojlantirishning strategik tahlili.....	72
III-BOB. RAQOBAT SHAROITIDA TOG‘-KON METALLURGIYA SANOATI KORXONASINI STRATEGIK BOSHQARISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	92
3.1. Korxonani klaster usulida rivojlantirish yo‘llari	91
3.2. Forsayt usulida korxonani innovatsion rivojlantirish istiqbollari belgilash	102
3.3. Strategik boshqaruvni amalga oshirish mexanizmlari	113
XULOSA	124
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	128
ILOVALAR	137

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan nobarqarorliklar va raqobat keskinlashuvi sharoitida korxonalarning yuqori qo'shimcha qiymatga (YuQQ) ega tovarlar bozorlariga kirishi murakkablashib borishi ularda strategik boshqaruv usullarini joriy etish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. "Hozirda jahon eksportida YuQQ tovarlarning 50 foizdan ortig'i Yevropa Ittifoqi, AQSH, Xitoy va Yaponiya davlatlarining kompaniyalari hissasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Yaqin 4-5 yilda global raqobatning kuchayishi investitsiyalar oqimining 30-40 foizini yuqori texnologik va innovatsion sohalarga yo'naltirishga olib kelishi kutilmoqda. Bunday vaziyatda korxonalar strategik boshqaruv usullarini joriy etishi hamda raqobat sharoitida rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jahonda korxona boshqaruvi muammolari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda korxonani boshqarishda strategik menejment usullaridan foydalanish va takomillashtirish borasida dolzarb ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, korxonalarni strategik boshqaruv samaradorligini oshirish, raqobat sharoitiga moslanuvchanligi hamda raqobat bosimiga bardoshlilikini baholash va tahlil qilish borasida yangi usullarni tatbiq etish, o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlarga erishishda resurslarni samarali boshqarish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilishga qaratilgan tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar doirasida korxonalar faoliyatiga alohida ahamiyat berilib, tuzilmaviy-tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Korxonalarda strategik boshqaruv usullari va mexanizmlarini joriy etish, innovatsion g'oyalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida samarali investitsiya siyosatini olib borish borasida muhim chora-tadbirlar belgilanmoqda. Zero, Sh.Mirziyoyevning "Ertangi kunimiz – bu teng raqobat muhiti va eksportga qaratilgan sanoat va savdo siyosati. Chunki, xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga kirmasak, iqtisodiy o'sish biz kutgandek

¹ World Trade Statistical Review 2023, (WTO: www.wto.org/statistics).

bo'lmaydi"², deb bildirgan fikrlari ham bunga dalildir. Shu bois, mamlakatimizda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida³ ushbu masalaga oid bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan, Strategiyaning 47- va 48-maqсадlarida qimmatbaho metallarni qazib olish va ularni qayta ishlash hajmini keskin oshirish, shuningdek, sanoatning ushbu tarmoqlarida ishlab chiqarish klasterlarini tashkil qilish, izlanish va rivojlantirish (R&D) markazlarini tashkil qilish, sohada mehnat unumdorligini 2 barobarga oshirish kabi strategik vazifalar bergilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqobat sharoitida korxona rivojlanishining o'rta va uzoq muddatli maqsadlariga erishishda korxonani barqaror rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish boshqaruvning samarali strategik usullarini qullash va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-sonli "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyulda qabul qilingan "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonunida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda, shuningdek, mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy

² Xalq so'zi gazetasi, 2024-y. 21 avgust, № 168(8791).

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni, 11.09.2023-y. <https://lex.uz/rw/docs/6600413>

riyojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish¹¹ ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammolarning o'rganilganlik darajasi. Strategik boshqaruvga oid masalalar ilmiy va nazariy jihatdan ko'plab xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, korxona darajasida strategik boshqarishning barcha sohalar uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan konseptual jihatlari xorijlik olimlardan M.Porter, R.S.Kaplan, D.P.Norton, G.Mintzberg, Alfred Chandler, F.Kotler, I.Ansoff, Y.Shumpeter⁴ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida batafsil o'chib berilgan.

MDH mamlakatlar olimlari V.Kvint, O.S.Vixanskiy, N.D.Kondratyev, N.Y.Bondarenko, V.S.Katkalov⁵ va boshqalarning tadqiqotlarida strategiyalashtirish, strategik maqsad va vazifalarni aniqlashning uslubiy jihatlari e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda strategik boshqaruv, shuningdek, korxonalarni boshqarishga oid muammolar Q.X.Abduraxmonov, A.V.Vaxobov, Sh.A.Allayarov, N.Q.Yo'ldoshev, G.Q.Abduraxmonova, M.P.Eshov, D.S.Qosimova, N.O.Raxmatullayeva, G.Y.Xo'djamuratova, Sh.D.Ergashxodjayeva, B.O.Tursunov, Z.A.Nakhmov, B.L.Kamiljonov, A.T.Umarov, O.Dj.Djuraboyev, B.K.G'oyibnazarov⁶ va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. A.M.Sodiqov,

⁴ Porter M. E. From Competitive Advantage to Corporate Strategy // Harvard Business Review, May/June 1987, pp. 43-59.; Mintzberg, H. (1994). The fall and rise of strategic planning // Harvard Business Review, 73 (1), 107-114.; Chandler A. D., Jr. 1962, Strategy and Structure: Chapters in the History of American Enterprise, MIT Press; Cambridge, MA.; Philip Kotler: Marketing Essentials, 1984. / Филипп Котлер: Основы маркетинга: Перевод на русский язык: В. В. Бобров. = М.: 1990.; Филипп Котлер: Стратегический менеджмент по Котлеру: Перевод на русский язык: Н.Матвеева. = Москва, 2021; Ансофф И. Стратегическое управление. = М.: Экономика, 1989. = 358 с.; Шумпетер И.А. Теория экономического развития. = М.: 1983. = 863 с.

⁵ Владимир Квинт. Теория и практика стратегического менеджмента. Дарфилд = "Ташкир" = Ташкент, 2018. = 160 с.; Виханский О. С. Стратегическое управление: учебник / О.С. Виханский. = 2-е изд., перераб. и доп. = М.: Гардарики, 1998. = 296 с.; Кондратьев Н. Д. Развитие науки менеджмента и теория предпринимательства. = М.: 2002. = 550 с.; Bondarenko N. Ю. Цели и задачи подлинно научного менеджмента: зарубежный опыт. // Вестник Ташкентского института управления и экономики. = 2012. = 883 с.; Katkalo A., Katkalo V. S. The Evolution of the Theory of Strategic Management. = Voprosy Ekonomiki. 2007, (13). =143-145. (In Russ.) <https://doi.org/10.32609/0042-8736-2007-12-143-145>.

⁶ Абдурахманов Р.Х. Непрерывный интеллект = основы устойчивого развития экономики. = Москва: ФГБОУ ВО "РЭУ им. Г.В. Плеханова", 2023.; Вохобов А.В. на 8. "Имидж инноваций". Дарфилд = "Зебо Принт", Ташкент = 2021.; Вохобов А.В. и др. Инновационные процессы и модернизация национальной экономики. = Ташкент: Моноия = 2011.; Sh.A.Allayarov and others. "Strategic enterprise competitiveness management under global challenges". = Academy of Strategic Management Journal = 2021.; Абдурахманова Г.К. = Анализ потребности и дифференциальной деятельности организации. = Социально-экономическое развитие России = 2019.; Influence assessment of enterprise management value based on coefficients methods under the risk conditions. / M. Eshov = Advances in Mathematics: Scientific Journal, 2020; Yo'ldoshev N.Q. Strategic management. Darslik. = T.: TDU = 2019.; S.D.Qosimova. "Samot korxonalarda muhandis riqobatcharadoshligini oshirish yo'nalishlari". Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali (AJMR) №7). 2013.; N.O.Raxmatullayeva. "Strategik menagement". Darslik. = T.: Moliya, 2019.; G.Y.Xo'djamuratova. "Strategik boshqaruv". Darslik. = T.: Iqtisodiyot =